Jahon turizm industriyasining jadal rivojlanishi mehmonxona xo'jaligi oldiga xizmat sifati, iqtisodiy samaradorlik va ekologik mas'uliyatni uyg'un holda ta'minlash vazifasini qo'yimoqda. Mehmonxona nafaqat vaqtinchalik yashash maskani, balki turli resurslardan keng foydalaniladigan murakkab xo'jalik tizimi ham hisoblanadi. Unda yoritish, isitish, sovitish, kir yuvish, oshxona, sanitariya-gigiyena xizmatlari, basseynlar, liftlar, ventilyatsiya tizimlari va boshqa infratuzilmalar faoliyati doimiy ravishda suv hamda energiya resurslaridan foydalanishni talab qiladi. Shu sababli mehmonxonalarda resurslardan oqilona foydalanish masalasi faqat texnik choralar majmui bilan cheklanmay, balki boshqaruv, moliyaviy rejalashtirish, xodimlarni rag'batlantirish



va mijozlar madaniyatini rivojlantirishni qamrab oluvchi kompleks tashkiliy-iqtisodiy vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

BMTning atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish bo'yicha yondashuvlarida turizm sohasida mavjud rivojlanish tendensiyalari saqlanib qolgan taqdirda, 2050-yilgacha energiya iste'moli, suv sarfi va chiqindilar hajmi sezilarli darajada ortishi mumkinligi qayd etilgan. Xususan, UNEP ma'lumotlariga ko'ra, amaldagi rivojlanish sur'atlari davom etgan sharoitda 2050-yilgacha turizm sohasida energiya iste'moli 154 foizga, suv iste'moli 152 foizga va issiqxona gazlari emissiyasi 131 foizga oshishi mumkin. Ushbu prognozlar mehmonxona korxonalarida resurslarni samarali boshqarish masalasining strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mehmonxonalarda suv va energiya sarfi ko'pincha xizmatlar tannarxiga bevosita ta'sir etuvchi muhim xarajatlar tarkibiga kiradi. Elektr energiyasi, issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari xarajatlarning ortib borishi korxonalar rentabelligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan barqaror boshqaruv ikki tomonlama ahamiyat kasb etadi: bir tomondan, tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi, ikkinchi tomondan esa xo'jalik xarajatlarni optimallashtirish imkonini yaratadi [1]. Ayniqsa, mavsumiy faoliyat yurituvchi mehmonxonalarda resurslar sarfini xona bandligi, mehmonlar soni va ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi bilan bog'liq holda hisoblash iqtisodiy nazoratning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi mehmonxonalarda suv va energiya resurslarini barqaror boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda resurs tejamkor boshqaruv modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida mehmonxona xo'jaligida suv va energiya resurslaridan foydalanish jarayoni tanlangan.

Tadqiqot predmeti esa ushbu resurslarni barqaror boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlaridan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mehmonxona xo'jaligida suv va energiya resurslarini barqaror boshqarish masalalari so'nggi yillarda turizm iqtisodiyoti, ekologik menejment va korxonalar boshqaruvi yo'nalishlaridagi ilmiy tadqiqotlarning muhim obyektiga aylangan. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, resurslardan samarali foydalanish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki mehmonxona korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mehmonxona xo'jaligida marketing va boshqaruv masalalarini tadqiq etgan P. Kotler, J. Bowen, J. Makens va S. Baloglu mehmonxona korxonalarining uzoq muddatli muvaffaqiyati xizmat sifati bilan bir qatorda resurslardan oqilona foydalanishga ham bog'liqligini ta'kidlaydilar. Mualliflarning fikricha, energiya va suv resurslarini samarali boshqarish korxonaning xarajatlarni optimallashtirish hamda mijozlar qoniqishini oshirish imkonini beradi.

Barqaror mehmondo'stlik industriyasini tadqiq etgan P. Sloan, W. Legrand va J.S. Chen mehmonxonalarda ekologik boshqaruv tizimlarini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganganlar. Ular barqaror operatsion faoliyatni ta'minlash uchun energiya samaradorligi, suv resurslarini tejash va chiqindilarni boshqarish yagona tizim sifatida ko'rilishi lozimligini asoslaydilar.

P. Jones, D. Hillier va D. Comfort tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mehmonxona biznesida korporativ barqarorlik konsepsiyasining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Mualliflar ekologik mas'uliyatning kuchayishi mehmonxonalarning strategik boshqaruv tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini hamda resurslarni boshqarish masalasi raqobat ustunligini shakllantiruvchi omillardan biriga aylanganini qayd etadilar.

Resurs iste'molini amaliy jihatdan o'rgangan P. Bohdanowicz va I. Martinac mehmonxonalarda suv va energiya sarfini baholashning benchmarking usullarini ishlab chiqqanlar. Ularning tadqiqotlarida mehmonxonalarda resurs iste'molini xizmat birligiga nisbatan hisoblash samaradorlikni baholashning eng muhim mezonlaridan biri ekanligi ko'rsatib berilgan.

I. Mensah mehmonxonalarda ekologik menejment amaliyotlarini tahlil qilib, energiya va suv resurslarini boshqarishda tashkiliy omillarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, texnik modernizatsiya bilan bir qatorda xodimlarning ekologik madaniyatini shakllantirish ham yuqori natijalarga erishishda muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlangan ilmiy-uslubiy manbalarda ham mazkur masalaga katta e'tibor qaratilgan. BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) hamda Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) tomonidan ishlab chiqilgan "Making Tourism More Sustainable" qo'llanmasida turizm korxonalarida suv va energiya resurslaridan samarali foydalanish barqaror rivojlanishning asosiy shartlaridan biri sifatida baholanadi. Shuningdek, UNWTOning "Hotel Energy Solutions" loyihasi materiallarida energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali mehmonxonalarning operatsion xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish mumkinligi asoslab berilgan.



Sustainable Hospitality Alliance tomonidan ishlab chiqilgan "Hotel Water Measurement Initiative" metodologiyasi mehmonxonalarda suv iste'molini baholashning zamonaviy usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu metodologiya suv sarfini band qilingan xona-kun va xizmat hajmiga nisbatan hisoblash imkonini berib, resurslardan foydalanish samaradorligini xalqaro darajada taqqoslashga xizmat qiladi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, mehmonxonalarda suv va energiya resurslarini barqaror boshqarish masalalari asosan ekologik menejment, energiya samaradorligi va korporativ barqarorlik nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Biroq resurs tejamkorlikning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini mehmonxona boshqaruvining yagona tizimi sifatida kompleks baholash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu jihatlarni chuqurroq o'rganishga qaratilgani bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tizimli tahlil, iqtisodiy taqqoslash, induktiv umumlashtirish, tarkibiy-funksional yondashuv hamda modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv mehmonxonani o'zaro bog'liq bo'lgan texnik, iqtisodiy, tashkiliy va inson omillaridan iborat yaxlit xo'jalik tizimi sifatida o'rganish imkonini beradi [3]. Iqtisodiy tahlil yordamida suv va energiya sarfining xizmatlar tannarxi, operatsion xarajatlar hamda rentabellik darajasiga ta'siri yoritildi. Tarkibiy-funksional yondashuv esa mehmonxonaning ma'muriyat, xo'jalik xizmati, texnik xizmat, kirxona, oshxona, xonalar fondi, moliya bo'limi va marketing xizmati kabi tarkibiy bo'linmalarining resurslarni boshqarishdagi o'rnini aniqlashga xizmat qildi.

Xalqaro amaliyotda mehmonxonalarda suv va energiya iste'molini aniq baholash uchun standartlashtirilgan ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Jumladan, Sustainable Hospitality Alliance tomonidan ilgari surilgan Hotel Water Measurement Initiative mehmonxonalarda suv sarfini band qilingan xona-kun yoki yig'ilish maydoni-soatiga nisbatan hisoblashni tavsiya etadi. Ushbu yondashuv mehmonxonalarga suv iste'molini taqqoslash, maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash hamda hisobotlarni shakllantirish imkonini beradi. Shu sababli maqolada resurslar sarfini umumiy hajmda emas, balki xizmat birligiga nisbatan baholash tamoyili asosiy metodik mezon sifatida qabul qilindi.

Mehmonxona xo'jaligida suv va energiya iste'moli bir necha asosiy guruhlariga bo'linadi. Birinchi guruhga xonalar fondi bilan bog'liq sarflar kiradi: yoritish, konditsionerlar, isitish tizimlari, dush, sanitariya uskunalari, maishiy texnika, elektr rozetkalari va xonalarni tozalash jarayonlari. Ikkinchi guruh umumiy foydalanish hududlari — vestibul, restoran, konferens-zallar, yo'laklar, liftlar, fitnes markazlari va basseynlar bilan bog'liq xarajatlarni qamrab oladi. Uchinchi guruh esa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari, ya'ni kir yuvish, oshxona faoliyati, texnik xizmat, bog' va landshaftlarni sug'orish, avtoturargohlar hamda yordamchi xo'jaliklardan iborat [4].

Tashkiliy jihatdan muhim masalalardan biri shundaki, mazkur bo'limlarning har biri resurslardan foydalanadi, biroq ko'plab hollarda xarajatlar umumlashtirilgan tarzda hisobga olinadi. Natijada ayrim xizmat yo'nalishlarida resurslardan foydalanish samaradorligini aniq baholash murakkablashadi. Masalan, mehmonxonada elektr energiyasi hisoblagichi faqat umumiy kirish qismida o'rnatilgan bo'lsa, restoran, kirxona yoki xonalar fondining alohida energiya sarfini tahlil qilish imkoniyatlari cheklanadi. Xuddi shuningdek, suv sarfi faqat umumiy ko'rsatkichlar asosida qayd etilganda, texnik xizmat ko'rsatishni takomillashtirish yoki foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o'z vaqtida aniqlash qiyinlashadi.

Shu sababli barqaror boshqaruvning birinchi tashkiliy sharti resurslar iste'molini segmentlar bo'yicha hisobga olish hisoblanadi. Har bir bo'limning suv va energiya sarfi aniqlanganda, mas'uliyat ham aniq taqsimlanadi. Masalan, oshxonada suv sarfi belgilangan me'yorlardan yuqori bo'lsa, bosh oshpaz va texnik xizmat mutaxassislari birgalikda sabablarni tahlil qiladi. Xonalar fondida energiya sarfi ortgan hollarda esa xona xizmati menejeri va texnik muhandis tegishli nazorat hamda optimallashtirish choralarini amalga oshiradi. Bunday yondashuvda resurslarni boshqarish faqat direktor yoki bosh muhandis vazifasi bo'lib qolmay, balki butun jamoaning umumiy mas'uliyatiga aylanadi [5].

Mehmonxona menejmentida resurslarni samarali boshqarishni joriy etishda ichki reglamentlar muhim ahamiyatga ega. Ularda konditsionerlarning harorat me'yorlari, bo'sh xonalarda elektr jihozlaridan foydalanish tartibi, choynab va sochiqlarni almashtirish davriyligi, suv tizimlaridagi nosozliklar haqida xabar berish mexanizmi, tungi yoritish rejimi hamda texnik profilaktika muddatlari aniq belgilanadi. Bunday reglamentlar xizmat sifatini saqlagan holda resurslardan yanada samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Suv mehmonxona xizmatlarining ko'rinmas, biroq muhim ishlab chiqarish omillaridan biridir. Mehmonlar dushdan foydalanadi, xonalar tozalanadi, choynablar yuviladi, oshxonada taomlar tayyorlanadi, bog'lar sug'oriladi va basseynlar to'ldiriladi. Shu sababli suv sarfini faqat kommunal xarajat sifatida emas, balki xizmatlar tannarxini shakllantiruvchi muhim iqtisodiy resurs sifatida baholash zarur [6].

Suvdan samarali foydalanishning birinchi yo'nalishi texnologik modernizatsiya hisoblanadi. Bunga aeratorli kranlar, ikki rejimli hojatxona baklari, sensorli aralastirgichlar, suv bosimini me'yorlashtiruvchi qurilmalar,



tomchilatib sug'orish tizimlari hamda oqova suvdan texnik maqsadlarda qayta foydalanish texnologiyalari kiradi. Ikkinchi yo'nalish tashkiliy boshqaruv bilan bog'liq bo'lib, xodimlar uchun suvdan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish, kir yuvish uskunalaridan to'liq yuklama asosida foydalanish hamda choyshablarni mehmon roziligi asosida almashtirish amaliyotini joriy etishni nazarda tutadi. Uchinchi yo'nalish iqtisodiy rag'batlantirishdir. Masalan, bo'limlar kesimida suv sarfi me'yorlari belgilanib, tejamkorlikka erishgan bo'limlar moddiy yoki nomoddiy rag'batlantirilishi mumkin [7].

Suv sarfini optimallashtirishning iqtisodiy samarasi bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, suv ta'minoti uchun to'lovlar qisqaradi. Ikkinchidan, oqova suvlarni chiqarish bilan bog'liq xarajatlar kamayadi. Uchinchidan, issiq suv iste'moli qisqarganda energiya xarajatlari ham pasayadi. To'rtinchidan, uskunalar yuklamasining maqbullashuvi ularning xizmat muddatini uzaytiradi. Demak, suv tejamkorligi energiya tejamkorligi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yagona boshqaruv jarayonidir.

Mehmonxonalarda energiya sarfining asosiy qismi isitish, sovitish, ventilyatsiya, yoritish va issiq suv tayyorlash tizimlariga to'g'ri keladi. Ayniqsa, iqlim sharoiti keskin bo'lgan hududlarda qishki isitish va yozgi sovitish xarajatlari mehmonxona byudjetining sezilarli qismini tashkil etadi. Shu bois energiya samaradorligi masalasi mehmonxona rentabelligi bilan bevosita bog'liqdir [8].

Xalqaro Hotel Energy Solutions loyihasida kichik va o'rta mehmonxonalarda energiya samaradorligini oshirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanish va operatsion xarajatlarni optimallashtirish maqsad qilib qo'yilgan. Ushbu yondashuv energiya tejamkorligini nafaqat ekologik mas'uliyat, balki mehmonxonaning raqobatbardoshligini oshiruvchi iqtisodiy vosita sifatida ham namoyon etadi.

Energiya resurslarini boshqarishda uch bosqich muhim hisoblanadi. Birinchi bosqich — audit. Unda mehmonxonada energiyaning qayerda, qancha va qanday maqsadlarda sarflanayotgani aniqlanadi. Ikkinchi bosqich — optimallashtirish. Bu bosqichda energiyadan foydalanish samaradorligi oshiriladi, jihozlarning ishlash rejimi takomillashtiriladi hamda avtomatik boshqaruv tizimlari joriy etiladi. Uchinchi bosqich — investitsion modernizatsiya. Mazkur bosqichda quyosh panellari, issiqlik nasoslari, LED yoritish tizimlari, harakat datchiklari, aqlli termostatlar va energiya monitoringi tizimlari joriy qilinadi [9].

Energiya tejamkorlik choralarining iqtisodiy samaradorligi "xarajat–natija" munosabati asosida baholanadi. Masalan, LED yoritish tizimiga o'tish dastlab ma'lum investitsiyalarni talab qiladi, biroq elektr energiyasi sarfining qisqarishi hisobiga ma'lum muddat ichida o'zini oqlaydi. Aqlli xona kartalari bo'sh xonalarda elektr energiyasi sarfini nazorat qiladi. Haroratni avtomatik boshqarish tizimlari esa konditsioner va isitish uskunalarining samarali ishlashini ta'minlaydi. Bunday chora-tadbirlar qisqa muddatda investitsion xarajat sifatida namoyon bo'lsa-da, o'rta va uzoq muddatda mehmonxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil shuni ko'rsatadiki, mehmonxonalarda suv va energiya resurslarini samarali boshqarish uchun faqat alohida texnik qurilmalarni almashtirishning o'zi yetarli emas. Barqaror natija texnik chora-tadbirlar, tashkiliy tartib, iqtisodiy hisob-kitob va xodimlarning resurslardan oqilona foydalanish madaniyati uyg'unlashgan holda shakllanadi. Quyidagi jadvalda mehmonxona faoliyatida resurs tejamkorlik choralarining tashkiliy-iqtisodiy ta'siri umumlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval. Mehmonxonalarda suv va energiya resurslarini boshqarish bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy choralar<sup>1</sup>

Yo'nalish	Tashkiliy chora	Iqtisodiy natija	Kutiladigan boshqaruv samarasi
Suv iste'molini nazorat qilish	Bo'limlar kesimida suv hisoblagichlarini joriy etish	Suv va oqova suv xarajatlari kamayadi	Ortiqcha sarf manbasi tez aniqlanadi
Issiq suv sarfini kamaytirish	Aerator, sensorli kran va ikki rejimli baklardan foydalanish	Suv bilan birga energiya xarajati ham qisqaradi	Xizmat sifati saqlangan holda tejamkorlik ortadi
Elektr energiyasini tejash	LED yoritish, harakat datchigi, xona kartasi tizimi	Elektr to'lovi kamayadi	Bo'sh hududlarda energiya isrofi cheklanadi
Isitish va sovitish tizimi	Aqlli termostatlar va harorat me'yorlarini belgilash	Konditsioner va isitish xarajati pasayadi	Komfort va tejamkorlik muvozanati ta'minlanadi
Kir yuvish xizmati	Choyshab-sochiq almashtirish siyosatini mehmon tanloviga bog'lash	Suv, elektr, yuvish vositalari xarajati kamayadi	Mehmon ekologik jarayonga jalb qilinadi
Xodimlar motivatsiyasi	Tejamkorlik bo'yicha ichki reyting va rag'bat	Resurs xarajatlari barqaror nazorat qilinadi	Xodimlarda mas'uliyat madaniyati shakllanadi
Moliyaviy rejalashtirish	Investitsiya qaytimi va tejamkorlik ko'rsatkichlarini hisoblash	Modernizatsiya xarajatlari asoslanadi	Boshqaruv qarorlari dalillarga tayangan bo'ladi

1 Muallif ishlanmasi



Jadvaldan ko'rinadiki, har bir texnik yechim tashkiliy tartib va iqtisodiy baholash bilan uyg'unlashgandagina yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Masalan, LED lampalarning o'rnatilishi elektr energiyasi sarfini kamaytiradi, biroq umumiy yoritish rejimi muntazam nazorat qilinmasa, kutilayotgan natijaga to'liq erishish qiyinlashadi. Xuddi shuningdek, suv tejavchi kranlarning joriy etilishi suv ta'minoti tizimini monitoring qilish va oqishlarni aniqlash mexanizmlari bilan birgalikda qo'llanilgandagina yuqori samaradorlik beradi [10].

Tahlil natijalariga ko'ra, mehmonxonada suv va energiya resurslarini barqaror boshqarish quyidagi natijalarni ta'minlaydi.

Birinchidan, operatsion xarajatlar optimallasadi. Suv, elektr energiyasi, tabiiy gaz va issiqlik energiyasi uchun to'lovlar mehmonxona byudjetida muhim ulushga ega bo'lgani sababli, ulardan samarali foydalanish moliyaviy natijalarning yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xizmatlar tannarxi optimallasadi. Resurs tejamkorligi bir xona-kun yoki bir mehmon-kun uchun sarflanadigan xarajatlarni kamaytiradi. Bu esa narx siyosatini yanada moslashuvchan va raqobatbardosh tarzda yuritish imkonini beradi.

Uchinchidan, ekologik imij shakllanadi. Bugungi kunda ko'plab sayyohlar mehmonxona tanlashda ekologik mas'uliyat mezonlariga alohida e'tibor qaratmoqda. Suv va energiya resurslaridan samarali foydalanadigan mehmonxona bozorda ijobiy brend imijiga ega bo'ladi [11].

To'rtinchidan, xodimlarning ekologik va iqtisodiy madaniyati rivojlanadi. Agar resurs tejamkorligi faqat texnik xodimlar vazifasi sifatida emas, balki butun jamoaning umumiy maqsadi sifatida shakllantirilsa, korxonada ichida mas'uliyatli boshqaruv tamoyillari yanada mustahkamlanadi.

Beshinchidan, investitsion jozibadorlik ortadi. Barqaror boshqaruv tizimiga ega mehmonxona banklar, investorlar, xalqaro hamkorlar va korporativ mijozlar uchun ishonchli hamda istiqbolli hamkor sifatida namoyon bo'ladi.

Mehmonxonalarda suv va energiya resurslarini barqaror boshqarish ko'pincha xarajatlarni optimallashtirish vositasi sifatida baholanadi. Biroq mazkur yondashuv ancha keng qamrovli ahamiyatga ega. U xizmat sifati, ekologik xavfsizlik, brend qiymati, xodimlar mas'uliyati, mijozlar ishonchi hamda hududiy resurslardan oqilona foydalanishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, suv resurslari cheklangan hududlarda yirik mehmonxonalar mahalliy aholi bilan bir xil suv manbalaridan foydalanadi. Shu sababli suvdan oqilona foydalanish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlashga ham xizmat qiladi [12].

Shu nuqtayi nazardan, mehmonxona menejmenti resurslarni boshqarish masalasini faqat xo'jalik bo'limi faoliyati bilan cheklab qo'yimasligi lozim. Barqaror boshqaruv tamoyillari strategik rejalashtirish jarayonlarida o'z aksini topishi zarur. Mehmonxonaning yillik biznes-rejasida suv va energiya sarfini optimallashtirish bo'yicha aniq ko'rsatkichlar, mas'ul ijrochilar, investitsiya hajmi, kutilayotgan iqtisodiy natijalar va monitoring muddatlari belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

Yana bir muhim jihat — mehmonlarni ushbu jarayonga faol jalb etishdir. Choyshab va sochiqlarni har kuni almashtirmaslik bo'yicha mehmon roziligini olish, xonalarda suv va energiyani tejashga oid qisqa tavsiyalarni joylashtirish, ekologik mas'uliyatli tanlov qilgan mijozlarga bonuslar yoki minnatdorchilik bildirish kabi choralar samarali natijalar beradi. Bunda muhim talab shundan iboratki, tejamkorlik mehmon tomonidan majburiy cheklov yoki xizmat sifatining pasayishi sifatida emas, balki ongli va mas'uliyatli ekologik tanlov sifatida qabul qilinishi lozim.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan esa har bir resurs tejamkorlik loyihasi investitsiya samaradorligi asosida baholanishi zarur. Masalan, mehmonxona LED yoritish tizimiga o'tish, quyosh panellarini o'rnatish yoki suvni qayta foydalanish tizimini joriy etishdan oldin dastlabki investitsiya hajmi, yillik tejamkorlik ko'rsatkichi, uskunalarning xizmat muddati va investitsiyaning qoplanish davrini hisoblab chiqishi lozim. Agar loyiha uzoq muddatda xarajatlarni optimallashtirsa hamda xizmat sifati va mijozlar qoniqishiga ijobiy ta'sir ko'rsatsa, u strategik jihatdan maqsadga muvofiq deb baholanadi [13].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mehmonxonalarda suv va energiya resurslarini barqaror boshqarish zamonaviy turizm xo'jaligining muhim tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, resurslardan oqilona va samarali foydalanish mehmonxona faoliyatida uchta muhim natijani ta'minlaydi: operatsion xarajatlarning optimallashtirishiga xizmat qiladi, ekologik mas'uliyatni mustahkamlaydi hamda korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, barqaror resurs boshqaruvining samaradorligi to'rtta asosiy omil bilan chambarchas bog'liq. Birinchidan, suv va energiya sarfini aniq hisobga olish hamda muntazam monitoring qilish tizimini yo'lga qo'yish zarur. Ikkinchidan, resurslardan foydalanish bo'yicha mas'uliyatni bo'limlar kesimida aniq taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, texnologik modernizatsiya chora-tadbirlarini iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bilan uyg'un holda amalga oshirish lozim. To'rtinchidan, xodimlar va mehmonlar



orasida resurslardan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish barqaror boshqaruvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- mehmonxonalarda suv va energiya iste'molini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi raqamli monitoring tizimlarini keng joriy etish;
- har bir tarkibiy bo'linma bo'yicha resurs iste'moli me'yorlarini ishlab chiqish va ularning bajarilishini muntazam baholab borish;
- LED yoritish tizimlari, aqlli termostatlar, energiya monitoringi qurilmalari, suv tejovchi uskunalar hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish;
- resurs tejamkorligi bo'yicha yuqori natijalarga erishgan xodimlar va bo'limlarni moddiy hamda nomoddiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish;
- mehmonlarni ekologik mas'uliyatli xatti-harakatlarga jalb etuvchi axborot va motivatsion dasturlarni rivojlantirish.

Umuman olganda, suv va energiya resurslaridan samarali foydalanish mehmonxonalar uchun nafaqat xarajatlarni optimallashtirish vositasi, balki strategik boshqaruvning muhim elementi hisoblanadi. Mazkur yondashuv mehmonxonaning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, xizmatlar sifatini oshirish, ekologik mas'uliyatni rivojlantirish hamda turizm bozorida uzoq muddatli raqobat ustunligini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kotler P., Bowen J.T., Makens J.C., Baloglu S. Marketing for Hospitality and Tourism. 7th ed. — Boston: Pearson, 2017. — 688 p.
2. Sloan P., Legrand W., Chen J.S. Sustainability in the Hospitality Industry: Principles of Sustainable Operations. 3rd ed. — London: Routledge, 2017. — 390 p.
3. Jones P., Hillier D., Comfort D. Sustainability in the Hospitality Industry: Some Personal Reflections on Corporate Challenges and Research Agendas. — Bingley: Emerald Publishing, 2016. — 176 p.
4. Medlik S., Ingram H. The Business of Hotels. 4th ed. — Oxford: Butterworth-Heinemann, 2000. — 272 p.
5. Hayes D.K., Ninemeier J.D. Hotel Operations Management. 3rd ed. — Boston: Pearson, 2016. — 528 p.
6. Chan E.S.W. Green Marketing: Hotel Customers' Perspective. — London: Routledge, 2013. — 258 p.
7. Bohdanowicz P., Martinac I. Determinants and Benchmarking of Resource Consumption in Hotels. — Stockholm: Royal Institute of Technology, 2007. — 148 p.
8. Cooper C., Fletcher J., Fyall A., Gilbert D., Wanhill S. Tourism: Principles and Practice. 5th ed. — Harlow: Pearson Education, 2012. — 736 p.
9. Page S.J. Tourism Management. 6th ed. — London: Routledge, 2019. — 510 p.
10. Mensah I. Environmental Management Practices in the Hotel Industry. — Accra: University of Ghana Press, 2014. — 236 p.
11. United Nations Environment Programme (UNEP), World Tourism Organization (UNWTO). Making Tourism More Sustainable: A Guide for Policy Makers. — Paris; Madrid: UNEP; UNWTO, 2005. — 210 p.
12. World Tourism Organization (UNWTO). Hotel Energy Solutions: Fostering Innovation to Fight Climate Change. — Madrid: UNWTO, 2011. — 64 p.
13. Sustainable Hospitality Alliance. Hotel Water Measurement Initiative: Methodology and Tool. — London: Sustainable Hospitality Alliance, 2020. — 44 p.
14. International Organization for Standardization (ISO). ISO 14001:2015. Environmental Management Systems — Requirements with Guidance for Use. — Geneva: ISO, 2015. — 35 p.
15. United Nations Environment Programme (UNEP). Tourism's Global Resource Use: Briefing Paper. — Nairobi: UNEP, 2011. — 32 p.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 5 (3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>